

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich**

TATU mustaqil tadqiqotchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitda sohani rivojlantirish ilmiy asoslari dolzarb mavzu sifatida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, tadqiqot mavjud tadqiqotlar va nashrlarni tahlil qilish misollarini ko'rib chiqishga asoslangan. Ishning asosiy maqsadi Texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi "axborot-kommunikatsiya xizmatlari" to'g'risida xulosalar va keyingi tadqiqotlar uchun mumkin bo'lgan yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya, axborot-kommunikatsiya sohasi, axborot-kommunikatsiya xizmatlari

### Аннотация

В статье рассматриваются научные основы развития промышленности в условиях цифровой экономики как актуальной темы. Кроме того, исследование основано на обзоре существующих исследований и примерах анализа публикаций. Основная цель работы – сделать выводы о современном уровне технологического прогресса в сфере «информационно-коммуникационных услуг» и определить возможные направления дальнейших исследований.

**Ключевые слова:** технический прогресс, цифровая экономика, информация и связь, информационно-коммуникационный сектор, информационно-коммуникационные услуги.

### Abstract

The article examines the scientific foundations of industrial development in the context of the digital economy as a topical issue. In addition, the study is based on a review of existing studies and examples of publication analysis. The main objective of the work is to draw conclusions about the current level of technological progress in the field of "information and communication services" and identify possible areas for further research.

**Keywords:** technological progress, digital economy, information and communication, information and communication sector, information and communication services.

### KIRISH

Zamonaviy dunyoda qo'llaniladigan eng murakkab texnologiyalar yuqori darajaga ko'tarildi, operatsion boshqaruv bilan shug'ullanadigan xodimlarga qo'yiladigan talablar ham o'smoqda. Ayniqsa, bu kabi yuqori texnologiyali kompaniyalar uchun yuqori axborot-kommunikatsion jarayonlar qo'llanilmoqda. Zamon bilan hamnafas bo'lishni xohlaydigan bunday kompaniyalar uchun o'z vaqtida kadrlarni samarali qayta tayyorlashi eng muhim vazifadir. Kompaniyalar axborot-

kommunikatsiya sohasida yuqori darajada va keng vakillik qilishda keyingi sakrashga tayyor xizmatlar qatori, o'z xodimlarining malakasini oshirish kerak bo'lmoqda.

Texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi "axborot-kommunikatsiya xizmatlari" deb nomlanadigan yangi xizmat turi va uni ko'rsatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tabiatini aniqlash vazifasini vujudga keltirmoqda. Ayni paytda axborot-kommunikatsiya xizmatlari an'anaviy tarzda ko'rsatiladigan va bevosita jisimiy ko'rinishda ifodalanadigan harakatlardan farqli ravishda simsiz amalga oshirilishi hamda murakkab fizik elementlar va belgilar bilan tavsiflanishi bilan ajralib turadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning axborot-kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalarda xizmatlar sohasida boshqaruv hisobining nazariy, uslubiy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq mazkur iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosan boshqaruv hisobini tashkil qilish masalalari iqtisodiyot tarmoqlarining sohalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ularda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

L.Lileyeva axborot-kommunikatsiya va aloqa xizmatlari sohasida boshqaruv hisobini prinsiplariga e'tibor qaratib, quyidagicha ta'kidlaydi: axborot-kommunikatsiya va aloqa xizmatlari sohasidagi gorizontol boshqaruv, axborot oqimlarini va materiallarni bo'linishi, qiymatni shakllanishidagi zanjirlarni bo'linishi, axborotni qayta ishlash va undan samarali foydalanish kabi xususiyatlar boshqaruv hisobini yangi ilg'or daromadlar biznes-markazi, xarajatlar biznes-markazi, mulk biznes-markazi, innovatsion venchur markazlar bo'yicha, biznes-markazlar bo'yicha hisob yuritish, to'lov qobiliyati monitoringi, segmentar prognozlashtirish kabi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim<sup>1</sup>.

Xorijlik olimlar Antonella Cugini and Silvia Pilonato xizmatlar sohasida boshqaruv hisobini B-to-B tamoyili asosida tashkil etilishini tadqiq etishgan<sup>2</sup>.

AQShlik iqtisodchi olim Ashford C. Chea o'zining ilmiy tadqiqotlarida xizmatlar sohasida boshqaruv hisobini tashkil etishda ABC tizimini qo'llashning afzalliklarini tadqiq etgan<sup>3</sup>.

M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot — iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan<sup>4</sup>.

1999 yilda N. Leyn raqamli iqtisodiyotning mazmuni bo'yicha ilmiy ta'rifni birinchi bo'lib ishlab chiqdi. Unga ko'ra, raqamli iqtisodiyot – bu internet tarmog'idagi kompyuter va kommunikatsion texnologiyalarning yaqinlashuvi hamda elektron

<sup>1</sup> Лилеева Л.Р. Бухгалтерский учет в сфере связи и телекоммуникаций. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Москва-2007 25 стр.

<sup>2</sup> Antonella Cugini and Silvia Pilonato The Cost Accounting System in B-to-B Service Companies: Cost Centers or Activity-Based Costing? GSTF Journal on Business Review (GBR) Vol.2 No.4, July 2013, 50p.

<sup>3</sup> Ashford C. Chea. Activity-Based Costing System in the Service Sector: A Strategic Approach for Enhancing Managerial Decision Making and Competitiveness. International Journal of Business and Management Vol. 6, No. 11; November 2011, 62 p.

<sup>4</sup> Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 402 с.

tijoratning rivojlanishini va tashkiliy tuzilmalardagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarni rag‘batlantiruvchi axborot va texnologiyalar oqimidir<sup>1</sup>


Yana bir xorijiy tadqiqotchi M.Rouzning ta’kidlashicha esa: “Raqamli iqtisodiyot – bu axborot-kommunikatsion texnologiyalar hisobiga amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatning xalqaro tarmog‘i. Soddaroq qilib, ushbu tushunchani raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot deb ham ta’riflash mumkin<sup>2</sup>

## METODOLOGIYA

Maqolada adabiyotlar tahlili natijasida axborot texnologiyalarga ta’sir etuvchi turli omillarga bo‘lgan mualliflik yondashuvi tizimlashtirilgan hamda yagona chizmaga birlashtirilgan. Ya’ni maqolada analiz va sintez usullaridan foydalanib yagona natijaga erishilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish borasida kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ular asosida keng turdagi interfaol faoliyat yuritishni o‘z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bois, iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ulardan foydalanishda mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.



### 1-rasm. Axborot texnologiyalarga ta’sir etuvchi turli omillar<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Lane N. Advancing the digital economy into the 21st century / N. Lane // Information Systems Frontiers. – 1999. – Vol. 1. – № 3. – P. 317–320.

<sup>2</sup>Rouse M.. 2016. Digital Economy, Techtargget, Newton, MA. <http://searchcio.techtargget.com/definition/digital-economy>

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi

Integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning uzviy bir qismi sifatida O‘zbekistonda jamiyatning rivojlanishida AKTning tobora kuchayib borayotgan yo‘nalishlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish talab etiladi. Jamiyat rivojlanishida axborot texnologiyalarining ta‘sirini turli omillar asosida baholash mumkin(1-rasm). Mamlakatimizning axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Ta‘kidlash joizki, milliy axborot tizimiga davlat organlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslar, tarmoq va hududiy axborot tizimlari kiradi.

Axborot tizimi esa axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridir. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma‘lumotlar banki, ma‘lumotlar bazasi axborot resurslarini tashkil etadi.

Respublika axborot-kommunikatsiya sohasini litsenziyalash orqali tartibga solish bir qator tarixiy, ijtimoiy, tuzilmaviy-iqtisodiy xususiyatlarga ega.

Birinchidan. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari iqtisodiyotni, raqobatni shakllantirish uchun muayyan shart-sharoitni taqozo etadi. Xo‘jalik faoliyatining barcha jabhalarini tartibga solishga doir ma‘lum shartlarni talab qiladi. Jumladan, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga utish davrida mavjud tarmoqni saqlab qolish, uning texnologik rivojini belgilash va tartibga solish, raqobatni kuchaytirish, investitsiyalar jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish zarurati tug‘iladi. Shu sababli hozirgi bosqichda axborot-kommunikatsiya sohasida tarmoqlarni loyihalashtirish, barpo etish, ulardan foydalanish va faoliyatlarini litsenziyalash amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan. Axborot-kommunikatsiya sohasida litsenziyalashning uziga xos xususiyati tabiiy monopolistning mavjudligidir. Litsenziyalash, ya‘ni tartibga soluvchi institutlar va vositalar shakl(sxema)larini ishlab chiqish asosida monopolizmni bartaraf etish va raqobatni rivojlantirish shartlari aniqlanadi.

Uchinchidan. “Universal xizmatlar” deb yuritiladigan xizmatlarni ko‘rsatish zarurligi yana bir o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Universal xizmatlar ko‘rsatishni tartibga solish litsenziyalash orqali amalga oshiriladi, ya‘ni bozorda hukmron o‘rinni egallagan axborot-kommunikatsiya operatoriga respublika hududida ko‘rsatish majburiyati yuklanadi. Universal xizmatlarning mavjudligi ularning tariflari yagona tarzda boshqarilishini talab qiladi, bu ham universal xizmatlar ko‘rsatuvchi axborot-kommunikatsiya operatorlari faoliyatini litsenziyalash shartlarida o‘z aksini topadi.

To‘rtinchidan. Axborot-kommunikatsiya sohasi davlat xavfsizligi, uning iqtisodiy mustaqilligi uchun alohida ahamiyatga ega ekanligini hamda iste‘molchilar huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash zaruratini hisobga olgan holda, sohada litsenziatlar litsenziya bitimlari talablarini qanday bajarayotganlarini kuzatib borish uchun ularning faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shu yo‘sinda, bayon qilingan omillar va holatlardan hamda axborot-kommunikatsiya sohasini davlat

tomonidan tartibga solishning umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyatni davlat tomonidan litsenziyalashning maqsadini shunday ta'riflash mumkin: mamlakatning axborot-kommunikatsiya bozoriga kuchli rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan ilg'or korxonalarini va boshqa subyektlarni kiritish hisobiga xalq xo'jaligining yuqori sifatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Ilmiy tomondan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlarining ishonchlilik darajasini oshirish, uning samarali faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun sohaga yangi turdagi texnologik jarayonlarni tatbiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda sohadagi samaradorlik ko'rsatkichlari va YIMdagi ulushi ham sezilarli darajada ko'tarilishi mumkin bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Лилеева Л.Р. Бухгалтерский учет в сфере связи и телекоммуникаций. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Москва-2007 25 стр.
2. Antonella Cugini and Silvia Pilonato The Cost Accounting System in B-to-B Service Companies: Cost Centers or Activity-Based Costing? GSTF Journal on Business Review (GBR) Vol.2 No.4, July 2013, 50p.
3. Ashford C. Chea. Activity-Based Costing System in the Service Sector: A Strategic Approach for Enhancing Managerial Decision Making and Competitiveness. International Journal of Business and Management Vol. 6, No. 11; November 2011, 62 p.
4. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 402 с.
5. Lane N. Advancing the digital economy into the 21st century / N. Lane // Information Systems Frontiers.– 1999.–Vol. 1. – № 3. – P. 317–320.
6. Rouse M.. 2016. Digital Economy, Techtarget, Newton, MA. <http://searchcio.techtarget.com/definition/digital-economy>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**